



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

NUTQIY RIVOJLANISHI ME'YORIDA BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNING SHAKLLANISH MEKANIZMLARI

Baxtiyorova Malika Maxsudovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada nutqiy rivojlanishi me'yorida bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikning shakllanish mexanizmlari psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganildi hamda tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy kompetentlik, ijtimoiy tajriba, kommunikativ ko'nikmalar, adaptiv faollik, psixologik, kognitiv, jamoaviy faoliyat.

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С НОРМАТИВНЫМ РЕЧЕВЫМ РАЗВИТИЕМ

Бахтиёрова Малика Максудовна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, преподаватель

Аннотация

В данной статье были изучены и проанализированы механизмы формирования социальной компетентности у детей дошкольного возраста с нормативным речевым развитием на основе психолого-педагогической и методической литературы.

Ключевые слова: социальная компетентность, социальный опыт, коммуникативные навыки, адаптивная активность, психологический, когнитивный, коллективная деятельность.

MECHANISMS OF SOCIAL COMPETENCE FORMATION IN PRESCHOOL CHILDREN WITH TYPICAL SPEECH DEVELOPMENT

Baxtiyorova Malika Maxsudovna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Lecturer

Abstract

This article examines and analyzes the mechanisms of social competence formation in preschool children with normative speech development based on psychological, pedagogical, and methodological literature.

Keywords: social competence, social experience, communicative skills, adaptive activity, psychological, cognitive, collaborative activity.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bola atrofdagi insonlar bilan muloqot qilishni, jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini tushunishni, o'z his-tuyg'ularini boshqarishni va tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilishni o'rganadi. Nutqiy rivojlanishi me'yorida bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi til va muloqot imkoniyatlarining yetarli rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan zamonaviy islohotlar bolaning faqat bilim olishiga emas, balki uning shaxs sifatida shakllanishiga, ijtimoiy muhitda erkin harakatlana olishiga va jamiyat bilan samarali o'zaro aloqaga kirishishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish masalasi bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki aynan maktabgacha yoshda bola ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi, hamkorlik, muloqot va o'zaro yordam ko'nikmalarini egallaydi.

Ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi bolaning individual-psixologik xususiyatlari, oilaviy muhit, tengdoshlar bilan munosabatlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Bu jarayonda tarbiyachi va pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, ta'limiy muhitning rivojlantiruvchi xususiyati ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va ularni ilmiy asosda tahlil qilish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masalaning nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida tahlil qilingan bo'lib, ijtimoiy kompetentlikning shaxs rivojlanishidagi o'rni, uning tarkibiy komponentlari hamda shakllanish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, E.O. Smirnova va V.M. Xolmogorova maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabatlarini o'rganar ekan, ijtimoiy tajriba va muloqotning bola psixik rivojlanishidagi hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, tengdoshlar bilan muloqot jarayoni bolaning emotsional sohasini rivojlantiradi hamda ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishga xizmat qiladi [3, p. 42–46].

R.I. Govorova esa o'yin faoliyatini ijtimoiy kompetentlikni shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida ko'rib chiqadi. U rolli o'yinlar orqali bolalar ijtimoiy rollarni egallashi, hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishi va real hayotdagi munosabatlarni modellashtirishini qayd etadi [4, p. 78–82]. Bu yondashuv ijtimoiy kompetentlikning amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham ijtimoiy kompetentlik muammosi dolzarb masala sifatida o'rganilmoqda. N. Abidova inklyuziv ta'lim muhitini yaratish jarayonida bolalarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim muhitining qulayligi va pedagogik qo'llab-quvvatlash ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi [1, p. 36–38].

Shuningdek, K.X. Maxsudovna tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda nutqiy nuqsonlari og'ir bo'lgan bolalarda leksik-grammatik ko'nikmalarni rivojlantirish texnologiyalari ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, u nutq rivojlanishi me'yorida bo'lgan bolalarda ham til va muloqot imkoniyatlari ijtimoiy kompetentlikning asosiy vositasi ekanligini qayd etadi [2, p. 16–18]. Bu esa nutq va ijtimoiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

L.S. Vygotskiy, A.N. Leontev va boshqa psixolog olimlar tomonidan ilgari surilgan faoliyat nazariyasiga ko'ra, bola psixik rivojlanishi faoliyat jarayonida amalga oshadi. Ayniqsa, o'yin, muloqot va bilish faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy tajribaning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv ijtimoiy kompetentlikni faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyat mahsuli sifatida tushunishga imkon beradi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kompetentlik ko'p komponentli tuzilishga ega bo'lib, u kognitiv, emotsional va xulq-atvoriy jihatlarni o'z ichiga oladi. Uning shakllanishi esa muloqot, o'yin faoliyati, ijtimoiy tajriba va pedagogik muhit bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Shu sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda nutqiy rivojlanishi me'yorida bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikning shakllanish mexanizmlarini o'rganish uchun nazariy va empirik yondashuvlar uyg'unligi asos qilib olindi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika va psixologiya fanlarida ijtimoiy kompetentlik, shaxs rivojlanishi hamda bolalar nutqiy va ijtimoiy rivojlanishiga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlikning tarkibiy komponentlarini aniqlashda kuzatish va pedagogik tahlil usullariga tayanildi. Ushbu metodlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot, o'yin va hamkorlik faoliyatidagi xulq-atvor xususiyatlari o'rganildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot faoliyat yondashuvi asosida olib borilib, bola shaxsining ijtimoiy kompetentligi uning amaliy faoliyat va muloqot jarayonida shakllanishi tamoyiliga tayandi.

Natija

Maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqil ravishda ham, kattalar yordamida ham to'plagan ijtimoiy tajribasi katta maktabgacha yoshdagi bolaning salohiyatini ochishga, maktabda namunali o'qishga, keyinchalik esa mustaqil hayotga kirib borishiga yordam beradi. Katta maktabgacha yoshdagi bolada mavjud faoliyat turlarining (o'yin, o'qish, bilish faoliyati) tashkil etilishi, bolalar va kattalar jamoasi bilan muloqot uslubi ijtimoiylik va yetuklikning yoshga xos shakllanishidan dalolat beradi. Bola xulq-atvorida, oddiy maishiy vazifalarni hal etishda mustaqillik va o'ziga yetarlilik kabi psixofiziologik hamda shaxsiy yutuqlar namoyon bo'ladi. Aynan shu yoshda ijtimoiy kompetentlik asoslari yaratiladi, bolaning rivojlanish yo'nalishi hamda zamonaviy dunyoga muvaffaqiyatli moslashuvi belgilanadi.

Kompetentlik — bu shaxsning muayyan bilimlarga ega bo'lishi va ularni amaliyotda qo'llay olishi orqali faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlaydigan shaxsiy sifati hisoblanadi.

J. Raven "kompetentlik"ni muayyan predmet sohasi doirasida ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus qobiliyat sifatida talqin qilgan. Barcha kompetensiyalar ta'lim va tarbiya vositasida shakllanadi.

Zamonaviy ta'limdagi kompetentlik yondashuvining eng muhim yo'nalishlaridan biri ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishdir. Ijtimoiy kompetentlik jamiyat haqidagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, turli ijtimoiy munosabatlarni faol egallash jarayonida shaxs sifati sifatida shakllanadi hamda jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini tushunish, jamoa ichidagi munosabatlarni to'g'ri qurishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy kompetentlikni o'zlashtirish vositalari jamiyatning o'zi, muayyan ijtimoiy qatlam va yosh kategoriyasiga xos bo'ladi. Umumiy ko'rinishda ijtimoiy kompetentlik "Men" va "jamiyat" munosabatlarini anglash, ijobiy ijtimoiy qadriyatlarni tanlash hamda o'z harakatlarini shu qadriyatlarga moslashtirish sifatida ifodalanadi (N.I. Belotserkovets) yoki "insonning jamiyatdagi xulq-atvor qoidalarini mos ravishda bajarishiga imkon beruvchi ijtimoiy ko'nikmalar" sifatida tavsiflanadi (G.M. Kajaspirnova). Umuman olganda, ijtimoiy kompetentlik insonning muayyan ijtimoiy rolni muvaffaqiyatli bajarishiga imkon beruvchi hodisadir.

Maktabgacha yoshdagi bola ma'lum darajadagi ijtimoiy kompetentlikni egallashi orqali kundalik hayotdagi turli vazifalarni hal qila oladi. Uning turli faoliyat va xulq-atvordagi namoyon bo'lishi bolaning keyingi bosqich — maktab ta'limiga tayyorligini ko'rsatadi.

Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy-shaxsiy kompetentlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'zini tasavvur qilish ("Men" obrazi);
- o'zini anglash va baholash;
- ezgulik, go'zallik, haqiqat kabi umuminsoniy qadriyatlarni tushunish;
- dunyoga nisbatan hissiy-baholovchi munosabatni namoyon etish;
- o'z fikri va munosabatini ifodalash;
- o'z xulq-atvori va faoliyatini boshqara olish;
- atrofdagilarga e'tibor qaratish;
- odamlar bilan munosabat me'yorlarini bilish va qo'llash;
- boshqalarga hamdardlik bildirish;
- birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish.

O'z-o'zini baholash ushbu yosh uchun yetakchi hisoblangan faoliyat turlari hamda muloqot jarayonida shakllanadi (V.N. Belkina, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, G.B. Stepanova, E.G. Yudina va boshqalar). Boshqalarni baholash va o'zini ular bilan taqqoslash orqali bola o'zining xususiyatlari, imkoniyatlari va qobiliyatlarini yanada to'g'riroq anglay boshlaydi. Muloqot davomida bolada jamoadagi o'rni va boshqalar uchun ahamiyati haqidagi tushuncha shakllanadi, tengdoshlar guruhi ichidagi xulq-atvor usullari rivojlanadi (M.M. Bezrukix). Ijtimoiy kompetentlik shakllanganlik darajasini aniqlash uchun bolaning o'zini baholash darajasi, atrofdagilar orasidagi mavqei hamda ijtimoiy muhitdagi xulq-atvori o'rganilishi kerak. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayon bolalarning qobiliyat va qiziqishlarini aniqlashga, ularning o'zaro muloqotini rivojlantirishga yordam beradi.

Bolaning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarining shakllanganligi uning bilish faolligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bilish faolligi maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishining tayanchi hisoblanadi (N.N. Poddyakov) va uning butun hayot faoliyatida namoyon bo'ladi. Bilish faolligining yuqori darajasi bolaning maktab ta'limiga o'tish davridagi ijtimoiy-psixologik yetukligining muhim ko'rsatkichidir. A.M. Matyushkin katta maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faolligining ikki turini ajratadi: adaptiv va produktiv.

Adaptiv faollik muayyan ehtiyojning yuzaga kelishi va qondirilishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu turdagi faollik xulq-atvor stereotiplarini — ko'nikma, odat va ustanovkalarni shakllantiradi.

Produktiv bilish faolligi esa uch bosqichda namoyon bo'ladi:

1. Diqqat faolligi — bolaning diqqat maydoniga tushgan yangi vaziyat yoki obyektga nisbatan tadqiqot faoliyatining yuzaga kelishi.
2. Tadqiqotchilik bilish faolligi — muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Agar bolaning bilim va ko'nikmalari yetarli bo'lmasa, kattalar yordamiga ehtiyoj tug'iladi.
3. Shaxsiy bilish faolligi — bolaning kundalik hayotdan tashqaridagi keng dunyoqarashi va intellektual tashabbuskorligini ifodalaydi.

Masalan: “Dunyodagi hamma narsani ko‘rishni xohlayman”, “Turli kitoblarni o‘qishni istayman”, “Kutubxonalarni qanday o‘ylab topishgan?”, “Nima uchun odamlar jahldor bo‘lib qoladi?” kabi savol va istaklar shaxsiy faollik namunasidir.

Maktabgacha yosh davri bolaning ijtimoiy kompetentligini shakllantirishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola muloqot qilish, jamiyat qoidalariga rioya etish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalarini egallaydi. Nutqiy rivojlanishi me‘yorida bo‘lgan bolalarda ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi til va muloqot imkoniyatlarining rivojlanganligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy kompetentlik bolaning o‘zini anglashi, o‘zini baholashi, boshqalar bilan munosabat o‘rnatishi, hamdardlik ko‘rsatishi va jamoaviy faoliyatda ishtirok etishida namoyon bo‘ladi. Ushbu sifatlar o‘yin, muloqot va bilish faoliyati jarayonida shakllanib, bolaning maktab ta‘limiga tayyorligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Shu bilan birga, bilish faolligining rivojlanganligi bolaning ijtimoiy-psixologik yetukligini ta‘minlaydi, uning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va atrof-muhitni anglashga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik faoliyat ularning shaxs sifatida kamol topishi, maktab ta‘limiga muvaffaqiyatli tayyorlanishi hamda kelajakda jamiyatda faol va mas‘uliyatli inson bo‘lib shakllanishining muhim sharti hisoblanadi.

Muhokama

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, nutqiy rivojlanishi me‘yorida bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u bir qator psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Ushbu jarayonda bola shaxsining faol ijtimoiy tajriba to‘plashi, muloqot ko‘nikmalarini egallashi hamda emotsional-intellektual rivojlanishi asosiy rol o‘ynaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi eng avvalo bolaning nutqiy imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Nutq — ijtimoiy munosabatlarga kirishishning asosiy vositasi sifatida bolaning o‘z fikrini ifodalashi, boshqalarni tushunishi va hamkorlikka kirishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, nutqi me‘yorida rivojlangan bolalarda ijtimoiy aloqalar kengroq va samaraliroq shakllanadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari — kommunikativ ko‘nikmalar, emotsional sezgirlik, o‘zini anglash hamda jamoaviy faoliyatga tayyorlik — o‘yin faoliyati jarayonida eng faol shakllanadi. Ayniqsa, rolli va syujetli o‘yinlar bolalarga turli ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijtimoiy me‘yorlarni o‘zlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, pedagogik muhitning ta‘siri ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi tomonidan tashkil etilgan rivojlantiruvchi muhit, rag‘batlantiruvchi muloqot va hamkorlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar bolalarda ijtimoiy faollikni oshiradi. Bunday muhitda bola nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiy xulq-atvor me‘yorlarini amaliy faoliyatda sinab ko‘radi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijtimoiy kompetentlikning shakllanishida oilaviy muhit ham muhim rol o‘ynaydi. Oilada shakllangan muloqot madaniyati, ota-ona va bola o‘rtasidagi emotsional yaqinlik hamda ijtimoiy qadriyatlarining singdirilishi bolaning jamiyatga moslashuv darajasini belgilaydi. Oilaviy muhitda ijobiy ijtimoiy tajriba orttirgan bolalarda tengdoshlari bilan munosabatlar ham barqaror va samarali bo‘ladi.

Bundan tashqari, bilish faolligi darajasi ham ijtimoiy kompetentlik bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi. Yuqori bilish faolligiga ega bolalar atrof-muhitga nisbatan qiziqishi yuqori bo‘lib, ular ko‘proq savol beradi, yangi vaziyatlarga tez moslashadi va ijtimoiy tajribani faol o‘zlashtiradi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

Muhokama natijalari shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi nutq rivojlanishi, o‘yin faoliyati, pedagogik muhit va oilaviy tarbiya kabi omillarning o‘zaro integratsiyasi asosida amalga oshadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish esa bolaning kelgusida maktab ta‘limiga muvaffaqiyatli moslashuvi va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs bo‘lib shakllanishini ta‘minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi bir nechta asosiy omillar orqali amalga oshadi. Ushbu omillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bolaning ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilaydi. Quyidagi jadvalda ijtimoiy kompetentlikning shakllanishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar va ularning mazmuni keltiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlik shakllanishining asosiy omillari

№	Omillar	Mazmuni va ta'siri
1	Nutqiy rivojlanish	Muloqotga kirishish, fikrni ifodalash va boshqalarni tushunish imkonini beradi
2	O'yin faoliyati	Ijtimoiy rollarni egallash, hamkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilishni shakllantiradi
3	Pedagogik muhit	Rivojlantiruvchi ta'lim jarayoni orqali ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini o'rgatadi
4	Oilaviy tarbiya	Emotsional barqarorlik, qadriyatlar va muloqot madaniyatini shakllantiradi
5	Bilish faolligi	Atrof-muhitni anglash, qiziqish va ijtimoiy tajribani kengaytiradi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi birgina omil bilan emas, balki bir nechta psixologik va pedagogik omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Eng muhim omillardan biri nutqiy rivojlanish bo'lib, u bolaning ijtimoiy aloqalarga kirishish imkoniyatini belgilaydi va barcha boshqa omillar bilan integratsiyalashgan holda ishlaydi. Shuningdek, o'yin faoliyati ijtimoiy kompetentlikning amaliy asosini tashkil etib, bola uchun real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Pedagogik muhit esa ushbu jarayonni maqsadli yo'naltirib, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantiradi. Oilaviy tarbiya bolaning ilk ijtimoiy tajribasini belgilab beradi va uning emotsional barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Bilish faolligi esa bolaning ijtimoiy muhitga qiziqishini oshirib, yangi tajribalarni tezroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Jadval natijalari ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi kompleks jarayon ekanligini tasdiqlaydi va ushbu jarayonda barcha omillar o'zaro uyg'unlikda ishlashi zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi nutqiy rivojlanish, o'yin faoliyati, pedagogik muhit, oilaviy tarbiya hamda bilish faolligi kabi omillarning o'zaro uyg'un ta'siri asosida kechadigan murakkab psixologik-pedagogik jarayon ekanligi aniqlandi. Ushbu jarayon bola shaxsining ijtimoiy tajriba to'plash, muloqotga kirishish va jamiyatda o'z o'rnini anglash imkoniyatlarini kengaytiradi. Nutqiy rivojlanishi me'yorida bo'lgan bolalarda ijtimoiy kompetentlik nisbatan tez va samarali shakllanadi, chunki nutq ularga fikr almashish, o'z his-tuyg'ularini ifodalash hamda ijtimoiy munosabatlarga faol kirishish imkonini beradi. Ayniqsa, o'yin faoliyati va jamoaviy mashg'ulotlar jarayonida bolalarda hamkorlik, empatiya, o'zini boshqarish va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, pedagogik va oilaviy muhitning uyg'unligi bolaning ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Rivojlantiruvchi ta'lim jarayoni va ijobiy emotsional muhit bolalarda ijtimoiy faollikni oshiradi hamda ularning jamiyatga moslashuvini yengillashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishga kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu jarayonni samarali tashkil etish bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini ta'minlash bilan birga, ularning kelajakda ijtimoiy jihatdan yetuk va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abidova N. Creating an Inclusive Educational Environment for Children with Special Educational Needs // Texas Journal of Engineering and Technology. – 2023. – Vol. 27. – P. 36–38.
2. Khakharova M.M. Technologies for the Development of the Lexical-Grammatical Aspects of the Speech of Children with Severe Speech Defects // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2024. – Vol. 25. – P. 16–20. – ISSN 2771-8948.
3. Смирнова, Е.О. Межличностные отношения дошкольников: диагностика, проблемы, коррекция / Е.О. Смирнова, В.М. Холмогорова В.М — М.: Гуманитар. Изд. центр ВЛАДОС, 2005. — 158 с.
4. Говорова, Р.И. Роль моделирования в развитии сюжетно — ролевой игры // Проблемы формирования познавательных способностей в дошкольном возрасте / Под ред. Л.А. Венгера. — М.: Изд — во АПН СССР, 1980. — 85 с.